

R.T. TOLIPOVA

**RUS TILINING
AMALIY GRAMMATIKASI**

Mustaqil o'rganuvchilar uchun

**Toshkent
LESSON PRESS
2019**

UO`K 811.161.2

KBK 81.2

R89

Muallif

R.T. Tolipova – Pedagogika fanlari doktori, professor:

Mas`ul muharrir

G.G` G`ofurova – filologiya fanlari doktori, professor,

Taqrizchilar:

X.M. Narzullaeva – filologiya fanlari nomzodi,

G. Abbosova – JIDU katta o`qituvchisi

R.T. Tolipova. Rus tilining amaliy grammatikasi (mustaqil o`rganuvchilar uchun). LESSON PRESS – T.: 2019, - 256 b.

Ushbu qo`llanma rus tilini mustaqil ravishda o`rganishga mo`ljallangan. Unda rus tilining fonetik, morfologik, sintaksik va uslubiy jihatlari mazmun ifodalash nuqtai nazaridan yoritilib berilgan va asosan, o`zbek tilida bo`lmagan jihatlarga asosiy e`tibor qaratilgan.

Hamma mashqlarning kalitlari berilgan.

Qo`llanma til o`rganuvchilarning keng ommasiga mo`ljallangan.

UO`K 811.161.2

KBK 81.2

R.T. TOLIPOVA
RUS TILINING AMALIY GRAMMATIKASI

Mustaqil o`rganuvchilar uchun

Muharrir: *M. Talipova*

Tex. muharrir: *D. Talipov*

Sahifalovchi: *Z. Talipova*

Nashriyot litsenziyasi: AI № 275 15.06.2015 da berilgan
Terishga berildi 03.03.2019. Bosishga ruxsat etildi 01.08.2019. Qog`oz bichimi 84x108¹/₁₆. TIMES garniturası, Shartli bosma tabog`i 15,2. Nashr tabog`i 12,9
Adadi 2000. Buyurtma № 12-08

«LESSON PRESS» MCHJ nashriyoti

Toshkent, Komolon ko`chasi, Erkin tor ko`chasi, 13

Tel.: 99 865-24-11, 94 640-24-11 t.me\lesson press

«IMPRES MEDIA» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Toshkent sh. Qushbegi ko`chasi, 6-uy

ISBN 978-9943-5072-5-3

© R.T.Talipova, 2019

© «Lesson press» MCHJ nashriyoti, 2019

SO‘ZBOSHI

Jahon xalqlari o‘rtasida eng yangi axborot almashuvi vositasi sifatida qabul qilingan 6 ta jahon tillarining biri bo‘lgan rus tilini o‘rganishga ehtiyoj kun sayin oshmoqda. Shu bois bu tilni ikkinchi til sifatida o‘rganish metodikasini takomillashtirishda eng yangi usul va vositalardan foydalanish dolzarb muammolardan biriga aylandi.

Ana shunday muammolardan biri – zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda bu tilni mustaqil ravishda o‘rganish vositalari va yo‘l-yo‘riqlarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etishdan iborat.

Ushbu qo‘llanma rus tilini o‘zlashtirishda o‘zlarining bilimi va nutqiy ko‘nikmalaridagi kamchiliklarni to‘ldirish niyatida bo‘lgan o‘zbekzabon til o‘rganuvchilarga mo‘ljallangan.

Grammatik shakllar haqidagi ma‘lumotlar o‘zbek tilida tushuntirilgan va lotin alifbosida yozib ko‘rsatilgan.

Mazkur qo‘llanmada rus tilining barcha sathlari (fonetika, leksikologiya, morfologiya, sintaksis kabilar) bo‘yicha o‘zbek tilidan farqlanuvchi va o‘zbekzabon til o‘rganuvchilarda qiyinchilik tug‘diruvchi asosiy grammatik vositalar qamrab olingan.

Qo‘llanmada rus tilidagi tinglangan va o‘qilgan matnni tushunish hamda o‘z fikrini rus tili qonun-qoidalariga mos ravishda og‘zaki va yozma tarzda bayon etishga o‘rgatish maqsad qilib olingan. Tegishli grammatik ma‘lumotlar jadvallarda berilgan.

Nutqiy bilim va ko‘nikmalar o‘zbekzabon til o‘rganuvchining ongida avval o‘zbek tilidagi nutqiy qoliplar tarzida shakllanishini hisobga olib, o‘zbek tilidagi har bir nutqiy birlikning rus tili qonun-qoidalariga mos ravishda tuzilgan muqobil shakllari ko‘rsatilgan.

Har bir til materialini nutqda qo‘llash ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga mo‘ljallangan mashqlar topshiriqlari o‘zbek tilida berilgan.

Materiallarning har biri muayyan mazmunni ifodalashga yo‘naltirilganligi sababli mavzularning ko‘pi ma‘naviy (semantik) nuqtai nazardan kelib chiqib nomlangan. Masalan, “Tasvir va ta‘rif”, “Miqdor”, “Muddat” va hokazolar. Ushbu mavzular qatoriga rus tili grammatikasi tizimida alohida nomlanmagan “Taxminiy o‘lchov”, “Sanani ifodalash”, “Yoshni ifodalash” kabilar ham kiradi. Shu bilan birga, rus tilidagi nutqiy ifoda shakllari o‘zbek tilidan keskin farqlanadigan «Fe‘l», «Sifatdosh», «Ravishdosh» kabi sof grammatik mavzular ham berilgan.

Qo‘llanmaning boshqa o‘quv materiallaridan farqlari shundaki:

Birinchidan, unda urg‘u bo‘yicha materiallarda urg‘uli unlilar bosh harflar bilan berilgan va talaffuzi lotin harflar bilan ko‘rsatilgan;

Ikkinchidan, unda deyarli barcha o‘zlashtirish lozim bo‘lgan materiallarning o‘zbekcha tarjimai berilgan;

Uchinchidan, deyarli hamma mavzular bo‘yicha spravochniy material ularning o‘zbekcha tarjimai bilan berilgan;

To‘rtinchidan, har bir so‘z birikma va jumla ikki yoki uch variantda berilgan, masalan, moslanadigan va moslanmaydigan birikma (*красное платье – платье красного цвета*), jumlar ikki- uch hil variantda: sodda, sifatdosh va ravishdosh bilan murakkablashgan hamda qo‘shma gap tarzida berilgan;

Beshinchidan, hamma padejlar predlogsiz varianti hamda predloglarga bog‘lanib berilgan (*около дома – рядом с домом – в доме*);

Oltinchidan, mashqlarning kalitlari berilganki, til o‘rganuvchilar bajarilgan mashqning to‘g‘ri javobini ko‘rishlari mumkin;

Bundan tashqari, qo‘llanmaning ilova qismida “Muomala odobi”, “Turlanmaydigan otlar”, “O‘rin-joy va yo‘nalishni ifodalashda qo‘llanadigan predloglar”, Tuslanishi alohida shaklga ega bo‘lgan fe‘llar kabi materiallar

berilgan. Rus tilida qoidadan tashqari holatlar ko'p. Ular har materialning o'zida eslatma sifatida berilgan.

Qo'llanmaga rus tili grammatikasi bo'yicha 20 ta semantik-grammatik jadval ham ilova qilingan (ularning 4 tasi fonetikaga, 12 tasi morfologiyaga, 4 tasi sintaksisga oid).

Bunday qo'llanma birinchi bor tuzilgani sababli uning mazmuni yuzasidan taklif va mulohazalarni keyingi nashrlarda hisobga olish uchun nashriyotga yo'llashni so'raymiz.

Muallif

РАЗЛИЧИЕ МЕЖДУ РУССКИМ И УЗБЕКСКИМ ЯЗЫКАМИ (Rus tili grammatikasining o‘zbek tili grammatikasidan farqli jihatlari)

Tuzilishi jihatidan flektiv va agglyutinativ tillar guruhi-ga mansub bo‘lgan rus va o‘zbek tillari grammatikasi orasida quyidagi farqli jihatlar mavjud:

1. Rus tili grammatikasida **кто? (kim?)** savoliga javob bo‘lib, одушевлённый otlar qatoriga barcha tirik mavjudotlar, shu jumladan, turli hayvonlar, qushlar va hasharotlar kiradi. O‘zbek tilida esa, **kim?** savoliga javob bo‘lib, одушевлённый otlar qatoriga faqat inson kiradi, qolgan hamma narsalar –неодушевлённый (jonsiz) hisoblanadi. Bu esa винительный падежни ishlatishda katta ahamiyatga ega, chunki bu падежда otlar va u bilan moslashgan barcha so‘z turkumlariga mansub so‘zlar *родительный падеж* qo‘shimchalari bilan, *неодушевлённые* otlar bilan esa *именительный падеж* qo‘shimchalari qo‘llanadi. Faqat jenskiy roddagi otlar –у-ю(-ую-юю) qo‘shimchasi bilan qo‘llanadi.

2. Rus tilida so‘z urg‘usi barqaror emas, so‘zning shakli o‘zgarishi bilan so‘z urg‘usi boshqa unliga ko‘chisi mumkin.

Masalan, *гОрод, городА, городскОй*

Shuningdek, turli urg‘uli bitta so‘z turlicha ma‘noni anglatishi mumkin. Masalan,

За плачУ – to‘layman

За плачу – yig‘layboshlayman

O‘zbek tilida esa so‘z urg‘usi barqarordir: urg‘u doim oxirgi unliga tushadi. So‘zga qo‘shimchalar qo‘shilsa, urg‘u oxirgi unliga ko‘chadi. Masalan,

оунА – оунанIng – оунагинА

3. Rus tilida urg‘u juda katta ahamiyatga ega. Chunki so‘zlarda **О, Е, Я** harflari urg‘usiz holda А va И (ЙИ) deb o‘qiladi, ammo yozuvda o‘zgarmaydi. Masalan, *водопровод (vadaprovod)*

театр (tiatr)

яйцо (yiytso)

E va Я harflari soʻz boshida kelsa oldiga **й** qoʻshiladi.

4. Rus tilidagi undoshlarda ham, oʻzbek tilidagidek talaffuzda **jarangsizlanish** va **jaranglanish** (оглушение и озвончение) hodisalari uchraydi. Oʻzbek tilidagidek, jarangsizlanishda jarangli undoshlardan oldin va soʻz oxirida kelgan undosh tovush jarangsizlanadi. Masalan,

Книжка (knishka)

Снег (snek)

Ёж (yosh)

Jaranglilanishda jarangli undoshdan oldin kelgan jaransiz undosh jaranglilanadi. Masalan,

сдача (zdacha)

Bu qoidalar old qoʻshimchali hamda predloglarga ham taaluqlidir, chunki ular soʻz bilan birga talaffuz qilinadi. Masalan,

над селом (natsilOm)

с годами (zgodAmi)

сдавать (zdavat)

Ushbu qoidadan faqat бес (-без), воз(-вос), из (-ис) va раз (pac) old qoʻshimchali soʻzlar istisno ravishda ikki xil yoziladi.

5. Shu bilan birga rus tilida soʻz shakli oʻzgarishi bilan yozuvda ham **harflar oʻzgarishi** (чередование), soʻzda qoʻshimcha **harflar ortishi** hodisasi yoki **soʻz tushib qolishi** hollari juda koʻp.

Masalan,

Снег – снежки, ухо – уши, сон – сна, любить – люблю.

Baʼzi hollarda soʻzning talaffuzi yozilishidan boshqacha boʻladi. Masalan,

-ого (-ova), -его (-yevu)

*что, чтобы bogʻlovchisi **што, штобы** deb oʻqiladi.*

6. Rus tilida rod kategoriyasi mavjud. Shunga ko‘ra barcha otlar oxirgi harfiga qarab uch rodga bo‘linadi: мужской, женский va средний род.

Мужской род da barcha undoshlar va erkak shaxslarni anglatuvchi so‘zlar kirgan.

Женский род da **а** yoki **я** harflari bilan tamom bo‘lgan so‘zlar kiradi.

Средний родга -о yoki **е(ё)** bilan tugagan otlar kiradi.

ь (мягкий знак) bilan tugagan otlar faqat мужской yoki женский rodga bo‘ladi. Qaysi so‘z qaysi rodga taaluqliligi haqida biror biror qoida yo‘q, bu so‘zlarni eslab qolish kerak. Faqat **ж, ч, ш, щ** harflari bilan tugagan so‘zlar мужской rod ga taaluqlidir. Shu harflardan keyin **ь** kelsa jenskiy rodga taaluqlidir.

7. Rus tilida turli rodga taaluqli so‘zlarning ko‘plik soni **-а** yoki **-я, -ы** yoki **-и**.

Jenskiy rodga taaluqli so‘zlar ko‘plik sonda **-и** yoki **-ы** bo‘ladi.

Bundan tashqari, istisno ravishda **-мя** bilan tugagan средний rodga taaluqli otlar ko‘plik sonda **-ена (-ёна)** va **-онек (-ёнок)** bilan tugagan so‘zlar **-ата** **-(ота)** qo‘shimchalariga ega.

Shuningdek, rus tilida faqat ko‘plik sonda va faqat birlik sonda qo‘llanadigan so‘zlar mavjud. Masalan, *часы, брюки, сумки* so‘zlari faqat ko‘plik sonda, *картошка, мука, молодежь, солнце* va boshqalar faqat birlikda qo‘llanadi.

8. Rus tilida ot turkumiga mansub so‘zlarning o‘zida, agar yumshoq va qattiq asoslardan keyin har xil qo‘shimchalar qo‘llanishini hisobga olsak, 34 xil qo‘shimcha qo‘llanar ekan.

Ot bilan moslashuvchi boshqa so‘z turkumlari birgalikda 50 dan ortiq padej qo‘shimchalari mavjud.

O‘zbek tilida kelishiklarda bor-yo‘g‘i 5 ta, ya’ni 10 marta kam qo‘shimchalar qo‘llanadi.

Bundan tashqari, rus tilida bitta *родительный падеж*ning o‘zida 23 predlogli so‘z birikmalari 8 ta eng

ko'p qo'llanuvchi ma'nolarda, 10 ta predloglarsiz so'z birikmalari mavjud.

9. Rus tilida so'z qo'shimchasini tanlashda, birinchidan, ma'noga qaraladi. Ma'no bo'yicha predlogsiz yoki predlogli birikma va so'z. Ikkinchidan, agar predlogli bo'lsa, qaysi predlog qo'llanyapti, chunki har bir predlog ma'lum padej bilangina qo'llanadi. Qo'llanadigan 44 ta predlogdan faqat **с, в, на, под, за** predloglari ikkita padej bilan qo'llanadi. **С** – *родительный* va *творительный*, **в** va **на** – *винительный* va *предложный*, **за** va **под** – *винительный* va *творительный*. Ammo ular har bir padejda o'zgacha ma'noda qo'llanadi. Masalan, **в** va **на** predlogi *винительный падеж*da harakat yo'nalishi, *предложный падеж*da esa harakat joyini anglatadi.

Shuningdek, **под** va **за** predloglari *винительный падеж* bilan harakat yo'nalishini, *творительный падеж*ga esa o'rin-joyini anglatadi. Ya'ni *винительный падеж* куда? Savoliga javob bo'ladi, *творительный падеж*ga esa где? Savoliga javob bo'ladi.

Predlog **с** esa *родительный падеж*da harakat boshlanishi vaqti yoki harakat yo'nalishi, *творительный падеж*da esa birgalikdagi harakatni anglatadi. Harakat quroli esa bu padejda predlogsiz qo'llanadi.

10. Rus tili bilan o'zbek tilining farqi miqdor sonlarning qo'llanishida juda katta. Unda quyidagi farqlarni ko'rsatish mumkun:

a) 1 soni va u bilan tamom bo'ladigan barcha sonlar aniqlanuvchi ot bilan rodnda hamda *падеж* moslashadi: *один, одна, одно, одни, одному, одной*;

b) 2,3,4 va u bilan tugaydigan barcha sonlar o'zi ot bilan moslashmaydi, lekin aniqlanuvchi ot *родительный падеж* birlikda qo'llanadi;

v) 5-10, 10-20, 30 sonlar aniqlanuvchi so'z bilan *родительный падеж* ko'plikda qo'llanadi;

g) 50-80, 500-900 sonlar qo'shma sonlar sifatida qo'llanadi. Ularning har bir qismi alohida падеж qo'shimchalarini oladi: пятидесяти, пятисот qo'llanadi;

d) bu sonlarning oxirida **Б** qo'llanmaydi. 40,90,100 sonlari **иминительный падеж О**, boshqa падеж lar **А** qo'shimchasi bilan qo'llanadi;

j) 200- двести, 300-400 **А** bilan, 500-900 o'rtasida **Б**, oxirida сот so'zi bilan qo'llanadi.

O'zbek tilida qo'shimchalar oxirgi songa qo'shiladi, rus tilida esa har bir son o'z qo'shimchasiga ega.

11. Ammo rus tili bilan o'zbek tili orasidagi farq ayniqsa fe'llarni qo'llashda katta.

Birinchi dan, rus tilida fe'llarda vid kategoriyasi mavjud. Har bir fe'l bir-biridan urg'u va yozilishida farqlanuvchi ikki xil vidga ega. Biri doimiy, takrorlanib turuvchi va tugallanmagan harakatni anglatib несовершенный вид bo'lsa, ikkinchisi bir takrorlanmaydigan va tugallangan harakatni anglatib, совершенный вид bo'ladi.

Masalan, *писать – написать, брать – взять, выручать – выручить*.

Har bir видning o'zini zamonlari, turlari (спряжения), mayllari va darajalari mavjud.

Несовершенный вид fe'llar 2-3 ta bo'lishi mumkin. Masalan, *бЕгать – бежАть – прибежАть*.

12. Rus tilidagi fe'llarda ko'pincha old qo'shimcha (приставка) mavjud. O'zbek tilidagi fe'llarda old qo'shimcha bo'lmaydi, o'zbek tilidagi mavjud old qo'shimchalar (ular 5-6 tagina). Ot turkumidan sifat yasash uchun qo'llanadi.

13. Rus tilida несовершенный вид fe'llari 3 zamonda qo'llanadi: прошедшее (o'tgan), настоящее (hozirgi) va будущее (kelasi). Kelasi zamon bu fe'llarda ikkita so'z: **БЫТЬ** fe'lining shaxs-son qo'shimchasi bilan va asosiy fe'lning noaniq shakli (инфинитив) qo'llanadi.

Совершенный вид fe'llarining hozirgi zamoni yo'q, ular faqat o'tgan zamon va kelasi zamonda qo'llanadi. Ке-



Bu tanishuv parchasidir. Asarning to'liq versiyasi
<https://kitobxon.com/oz/asar/4733> saytida.

Бу танишув парчасидир. Асарнинг тўлиқ версияси
<https://kitobxon.com/uz/asar/4733> сайтида.

Это был ознакомительный отрывок. Полную версию
можно найти на сайте
<https://kitobxon.com/ru/asar/4733>